

О‘ЗBEKISTONDA MA’NAViy YANGILANISH YOSHLARDA FAOL IJTIMOIY POZITSIYANI SHAKLLANTIRISHNING OMILI.

TATU Fargona filiali oqituvchisi

S.Sodiqov

Annotatsiya: Maqolada ma’naviy yangilanish jamiyat va uning a’zolarining ma’naviy ehtiyojlarini zamon talablari va ruhiyatidan kelib chiqib, unga mos ravishda o’zgarib, yuksalib borishi natijasida amalga oshishi ochib berilgan. Bu jarayonda shaxs ma’naviy faoliyati, ma’naviy salohiyati ham kengayib borishi ham yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: yangilanish, pozitsiya, faol pozitsiya, ma’naviy yangilanish, ijtimoiy pozitsiya, qadriyatlar.

Jamiyatda yangilanish jarayonini tahlil etish borasida bir qator falsafiy yondashuvlarga tayanish zarur. Yangilanishning mohiyati dialektik o’zgarish bilan bog’liq. Yangilanishni dialektik yondashuvsiz tavsiflab bo’lmaydi. Chunki dialektikaning asosida o’zgarish, yangilanish va o’zaro aloqadorlik mavjud bo’lib, uning mohiyati taraqqiyotni taqozo etadi. Har qanday obyekt yoki jamiyat sohasining progressiv taraqqiyoti yangilanishga asoslanadi. Yangilanishsiz jamiyat oldinga siljmaydi. Jamiyat tizimida biror elementning o’zgarib va yangilanib borishi dialektik asosda boshqa sohalarining ham yangilanishiga olib keladi.

Faylasuf olim Q.Nazarov yangilanishni quyidagicha ta’riflaydi: “Yangilanish tabiat, jamiyat va inson tafakkuri taraqqiyotining ajralmas qismidir. Yangilanishning taraqqiyotdan farqi shundaki, taraqqiyot quyiroq miqdoriy ko’rsatkichlar bilan ifodalansa, yangilanish ana shu taraqqiyotning sifat belgilarini ifodalaydi”[1].

Jamiyat taraqqiyotining barcha sohalarida tarixiy jarayonga yonma-yon ravishda yangilanish amalga oshib borgan. Uning ta’sirida asrlar davomida shakllangan qadriyatlar tizimi turmush tarzi madaniyat, ma’naviyat va boshqa sohalar taraqqiyoti tezlashgan. Ayniqsa, Yevropa, Markaziy Osiyo Uyg’onish davrida, ya’ni tarixning

burilish davrlarida yangilanish jarayonlarining dinamikasi nihoyatda tezlashib, muvaffaqiyatli kechgan.

Jamiyatda yangilanish jarayonining borishi undagi erkinlik darajasiga aloqador. Chunki erkinlik ijtimoiy hayotning yangilanishiga katta ta'sir etadi. Jamiyatning erkinlik darajasi ijtimoiy hayot sohalarining yangilanish uchun katta imkoniyat yaratadi. Jamiyat erkinlashib borgani sari uning yangilanishi tezroq boradi. Ko'p hollarda ijtimoiy yangilanish hodisasi mamlakat taraqqiyotining o'tish davrida yanada muhim bo'lib, bunda yangilanish ham obyektiv ham subyektiv jihatdan ijtimoiy zarurat hisoblanadi.

“Harakatlar strategiyasidan ko'zlangan asosiy maqsad – islohotlar samaradorligini tubdan oshirish, davlat va jamiyatning har tomonlama va jadal rivojlanishini ta'minlash uchun shart-sharoitlar yaratish, mamlakatni modernizatsiya qilish va hayotning barcha sohalarini erkinlashtirishdan iborat edi”[2].

Globalashuv natijasida kirib kelayotgan yangiliklar turli ijobiy va salbiy ta'sirlar, qadriyatlar transformatsiyasi, ta'lim tizimi, madaniyat va ma'naviyatning globallik hususiyatini qabul qilib borishi kabi hodisalar ham o'z navbatida yangilanishni talab etadi. Ayniqsa, yaqin o'tmishda mustaqillikka ergashib, yangi taraqqiyot yo'lini tanlagan davlatlar oldida jamiyatning yangilanishi, iqtisodiy-siyosiy, madaniy-ma'naviy, ta'lim, siyosat va boshqa sohalarida tubdan islohotlar hamda modernizatsiyani amalga oshirishning tarixiy-ijtimoiy strategik vazifa bo'lib mazkur ijtimoiy subyektlarning kelajagini belgilab beradi.

Ma'lumki, O'zbekiston Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tomonidan imzolangan 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida 2022-yil 28 aprelda imzolangan farmoni PF-60 mamlakatimiz barqarorligini yangi bosqichini asosiy yo'nalishlari va tendensiyalarini belgilab beruvchi Farmon bo'ldi. Unda aytilishicha: “so'nggi besh yillik islohotlarning natijasida mamlakatimizda yangi O'zbekistonni barpo etishning zarur siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-ma'rifiy asoslari yaratildi”[3]. Bundan kelib

chiqadiki, O'zbekiston taraqqiyotining barcha sohalarida asoslari yaratildi. Kelgusi vazifa Prezidentimiz ko'rsatib berganidek, Yangi O'zbekistonni barpo etishdan iborat.

Yuqorida yangilanish borliqning barcha turlariga tegishli bo'lgan obyektiv hodisa ekanligi qayd etildi. Bu nuqtayi nazardan jamiyat taraqqiyotida ma'naviy yangilanish muhim ahamiyatga ega. Ma'naviy yangilanish ijtimoiy yangiliklarning muhim yo'nalishi bo'lib, jamiyat taraqqiyotining burilish davrida obyektiv qonuniyatlar asosida amalga oshadi.

Har qanday jamiyatda iqtisodiy-ijtimoiy munosabatlar bilan bir qatorda mazkur munosabatlarning amalga oshiruvchi subyektlari bo'lgan jamiyat a'zolarining ma'naviy ongi, ularning ma'naviy munosabatlari katta ahamiyatga ega. "Ya'ni mamlakat demokratik huquqiy fuqarolik jamiyati qurish yo'lidan borayotgan jarayonda millatimiz vakillarining madaniy-ma'naviy qadriyatlari, bilimi, ahloqiy qoidalari, jamiyatda amalga oshirilayotgan islohotlarga munosabati kabi ma'naviy omillar iqtisodiy omillar bilan bir qatorda vatanimiz taraqqiyotini belgilab beradi"[4]. Har qanday iqtisodiy va boshqa sohadagi erishilayotgan yutuqlar ma'naviy va ahloqiy jihatdan qo'llab quvvatlanganda jamiyat yanada yuksak taraqqiy etishi mumkin.

"Demak, jamiyat rivojlanish dinamikasini belgilab beruvchi, iqtisodiy, siyosiy va boshqa sohalarga ham ta'sir etuvchi omillar qatorida ma'naviy omillarning roli katta. Iqtisodiy va ma'naviy sohaning o'zaro munosabati jamiyatning ijtimoiy oriyentatsiyalari va maqsadlarni belgilashda e'tiborga olinishi zarur bo'lgan omil hisoblanadi"[5]. Bu nuqtayi nazardan O'zbekiston taraqqiyotining hozirgi bosqichida ma'naviy yangilanish uning mohiyati va tendensiyalarini o'rganish butun jamiyatning barcha sohalarida yangilanish jarayoni iqtisodiy, siyosiy, madaniy, ta'lim va boshqa sohalarda amalga oshayotgan islohotlar va modernizatsiyaning mohiyati va dinamikasini to'g'ri anglab yetishga hamda mazkur jarayonlarda ma'naviy yangilanishning rolini va ahamiyatini tushunishga yordam beradi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Қ.Назаров. Жаҳон фалсафаси қомуси.П.О-Қ. –Тошкент.: "Ўзбекистон фойласуфлари миллий жамияти нашриёти". "Маънавият" нашриёти. –Б.608.

2. Элдор Туляков. “Харакатлар стратегияси билан беш йил:ислохотлар сарҳисоби” Мурожаат этилган сана. 07.02.2022
3. <https://lex.uz/docs/5841063> 2022 — 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони, 28.01.2022 йилдаги ПФ-60-сон.
4. Subxoniddin o'g'li, S. S. (2023). Yangi O'zbekistonda yoshlarda faol pozitsiyani shakllantirish masalalari. *Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi*, 2(1), 1150-1153.
5. Sodiqov, S. (2024). YOSHLARDA FAOL POZITSIYANI SHAKLANTIRISHNING MILLIY-TARIXIY ASOSLARI. *Farg'ona davlat universiteti*, (2), 45-45.